

TA'LIM VA HUQUQ

Tolibjonova Yodgora Bekzodobek qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

Baxtiyorova Gulsanam Ixtiyor qizi

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2- kurs talabasi

Turdaliyeva Shirin Mansur qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Ommaviy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagog huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslari, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Pedagog huquqlarini ta'minlashning milliy va xalqaro darajadagi muhim jihatlari yoritilib, o'qituvchi erkinligi jamiyat taraqqiyotidagi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagog huquqlari, xalqaro huquq, ta'lim sifati, o'qituvchi erkinligi, YUNESKO.

Аннотация: В статье рассматриваются международно-правовые основы прав педагогов, их значение для повышения качества образования, а также анализируются правовые документы, принятые международными организациями. Подчеркивается важность обеспечения прав учителей на национальном и международном уровнях, а также их роль в развитии общества.

Ключевые слова: права педагогов, международное право, качество образования, свобода учителя, ЮНЕСКО.

Annotation: This article examines the international legal foundations of teachers' rights, their role in improving the quality of education, and analyzes legal documents adopted by international organizations. It highlights the importance of protecting teachers' rights at both national and international levels and emphasizes their contribution to societal development.

Keywords: teachers' rights, international law, quality of education, teacher freedom, UNESCO.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining eng asosiy ustuni – bu pedagogdir. Pedagog huquqlarining to'liq ta'minlanishi nafaqat o'qituvchining ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun ham poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi huquqlarining e'tirof etilishi, ular uchun yaratiladigan munosib shart-sharoitlar, insoniyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish bilan bevosita bog'liqdir. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, BMT, YUNESKO hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning qaror va konvensiyalari o'qituvchi huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan. Bu hujjatlar nafaqat pedagog shaxsini himoya qiladi, balki ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning huquqlarini to'liq ta'minlashga ham xizmat qiladi. Chunki o'qituvchining erkinligi va huquqlari qanchalik ta'minlansa, ta'lim sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Shuningdek, pedagog huquqlari masalasi milliy ta'lim siyosatlari uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi huquqlari hurmat qilinmagan jamiyatda ta'lim samaradorligi ham pasayadi, kelajak avlodning ma'naviy va intellektual rivoji esa xavf ostida qoladi. Shu nuqtai

nazardan, xalqaro tajribani o'rganish, pedagog huquqlarining turli mamlakatlarda qanday kafolatlanganini tahlil qilish va ularni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Demak, pedagog huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslarini chuqur tadqiq etish nafaqat o'qituvchilar manfaatini himoya qiladi, balki insoniyatning kelajagi uchun mustahkam intellektual zamin yaratadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda majburiy mehnatga barham berish, ayniqsa, ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o'z xizmat vazifalari bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish hollariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq pedagog xodimlarni ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga jalb etish hollari davom etmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga pedagog xodimlarni mehnatga ma'muriy tarzda majburlaganlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin xuddi shunday qilmishni takroran sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi norma kiritilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida pedagog xodimlarni mehnatga ma'muriy tarzda majburlaganlik, shuningdek ularning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi nazarda tutilmoqda.

Ushbu maqola ta'lim tashkilotining pedagog xodimlarini majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Konstitutsiyamizning 44-moddasiga muvofiq Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijo etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. 2024-yil pedogoglar huquqiy maqomi to'g'risidagi qonuning 6 va 7- moddasiga ko'ra ularning huquq va majburiyatlari keltitib o'tilgan

6-modda. Pedagogning huquqlari

Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish;

belgilangan tartibda mualliflik dasturlarini va o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko'rsatish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanish;

kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi davlat axborot-resurs hamda axborot-kutubxona markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, tajriba-sinov faoliyatida ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijodiy ta'til olish;

ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

o'z kasbiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagoglarning jamoat birlashmalariga birlashish va ularda ishtirok etish;

o'z kasbiy faoliyatiga g'ayriqonuniy ravishda aralashuvdan himoyalani;

pedagogik faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash;

ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tish (davlat ta'lim tashkilotlari uchun);

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog o'zining kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish uchun sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan, shuningdek o'z huquqlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilgan taqdirda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, pedagog ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmagan holda, o'z arizasida huquqbuzarning shaxsi, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va uning mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek ishni hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ko'rsatib, sudga bevosita murojaat qilishga haqli.

7-modda. Pedagogning majburiyatlari

Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;

o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;

majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagogning zimmasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin. Pedagogning maqomi to'g'risidagi qonuning 5-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga asosan ish beruvchi pedagogning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Quyidagilar taqiqlanadi:

pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatish, shuningdek unga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilish;

pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish qa'tiyan ta'qiqlanadi. Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida : o'zbekiston qonuni ham qabul qilindi Unda aynan pedagoglarning o'zining professional kasbiy faoliyatidan tashqari qilinayotgan ishlari qattiq qoralanishi va bu ishlarga jalb qilganlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish taklif etilmoqda.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga pedagoglarni mehnatga ma'muriy tarzda majburlash bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi;

Ta'lim muassasasi pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga ta'lim oluvchilar bilimini to'g'ri va xolis baholashiga ta'sir ko'rsatish bilan ifodalangan tarzda qonunga xilof ravishda aralashish yoki ta'lim muassasasi pedagog xodimining xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi;

(Amaldagi qonunchilikda ushbu huquqbuzarlikka nisbatan belgilangan jarimalar miqdori fuqarolarga BHMning 5 baravaridan 7 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 7 baravaridan 10 baravarigacha miqdorni tashkil etadi)

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishini nazarda tutuvchi normani kiritish nazarda tutilmoqda. (Amaldagi qonunchilikka ko'ra, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravaridan 10

baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 10 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ma'muriy qamoqqa olish bilan bog'liq jazo chorasi mavjud emas. Shuningdek, Jinoyat kodeksiga ham ta'lim muassasasining pedagog xodimiga nisbatan mehnatga ma'muriy tarzda majburlash uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etgan taqdirda huquqbuzar bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishini mustahkamlovchi yangi norma qo'shildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda mamlakatimiz miqyosida oqutuvchi nafaqat qonun tomonidan balki davlat tomonidan keng himoya qilinmoqda. Chunki bu muammo ham ichki siyosatda balki, tashqi siyosatda ham sezilarli ta'sir krsatadi. O'qituvchining huquqiy himoyasi nafaqat uning shaxsiy manfaatini ta'minlaydi, balki butun ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki huquqi himoya qilingan pedagog erkin fikrlaydi, yangilik yaratadi va kelajak avlodni tarbiyalashda yanada samarali faoliyat olib boradi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar, tavsiyalar va deklaratsiyalar mamlakatlarga pedagog huquqlarini yanada kuchliroq kafolatlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Endilikda bu tajribalarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish, pedagoglar huquqlarini real hayotda to'liq ta'minlash dolzarb vazifadir. Shu bois, pedagog huquqlariga e'tibor – bu ta'lim tizimiga, ta'lim tizimiga e'tibor esa butun jamiyat kelajagiga e'tibordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagog huquqlari to'g'risidagi qonun
2. Pedagoglar nomidagi ensiklopediya 1 qism
3. Pedagoglar nomidagi ensiklopediya 2 qism
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
5. Jinoyat Kodeksi
6. Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks